



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR	12
Muxiddin Kalonov	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA	34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
KARBOHOVYIE KREDITV V AGRAPHOM SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZELENOY EKONOMIKI UZBEKISTANA	61
Абдуллаева Зайнаб Руслановна	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIVALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	



AHOLI ISTE'MOL MADANIYATI VA MILLIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	118
Rustamov Sheraz Oblokulovich	
ISHLAB CHIQARISH OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: KOBБ-DOUGLAS MODEL	
ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS	
BOSHQARISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ	
МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ	
ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА	
РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN	
FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIIYALAR BOZORI MEKANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА:	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG'ALLIKNI MONETAR VA KO'P O'LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA	
IQTISODIY O'SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o'g'li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQARISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING	
USTUVOR YO'NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA	
RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o'g'li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC	
LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ	
ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME'MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR,	
ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhiddin Husniddin o'g'li	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING	
FOREIGN MARKETS.....	217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH	
ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
Rajabova Malika Nuriddin qizi	
NATIJAGA YO'NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR	
VA YONDASHUVLAR	230
Qosimova Gulyar Axmatovna	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	239
Усманова Зумрад Исламовна	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	242
Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI	248
Xannarov Komiljon Karimovich	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOIYILLARI	253
Saidov Suhrob Shodmonovich	
HUDUDIIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
Akbarova Kamola Akmaljonovna	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI	263
Karimov Eminjon Gapardjonovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	270
Shermatov Axror Abdixakimovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	275
Ergash Bobobekov	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	281
Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	285
Qurbonova Rahima Jamshedovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	297
Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA REKREATSION XIZMATLAR MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	302
Usmanova Zumrad Islamovna	
WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS	306
Iskhakova Sarvar Ayubovna, Amriyeva Shahzoda Shukhratovna	
BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	312
Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li	
MEVA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TIZIMI	316
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



AHOLISI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA QISHLOQ JOYLARINING BARQAROR RIVOJLANISHI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR.....	325
Yusufjonov Jahongir Ilxomjon o'g'li	
СТРАТЕГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В ФИЛОСОФИИ СТОИЦИЗМА И СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ СТРАТЕГИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ МАРКА АВРЕЛИЯ И КОНЦЕПЦИИ СТРАТЕГИРОВАНИЯ ВЛАДИМИРА Л. КВИНТА.....	329
Норкулов Суннатбек Алишерович	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLİYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QULAY BIZNES MUHITINING TA'SIRI.....	341
Vahidova Gulhayyo Arzi qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BANK KREDITLARI BILAN TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	347
Raxmanova Ilmira Rustamovna	
SAVDO KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MAQSADLI MARKETINGDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	354
Toxirov Javlon Raximovich	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TARKIBIY QISMLARI BO'YICHA BAHOLASHNING MUHIM OMILLARI.....	361
Arslonov U. U.	
RESURLAR TA'MINOTI TIZIMINING TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI.....	367
Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi	
JAHON SAVDO TASHKILOTI TAMOYILLARI ASOSIDA SOLIQ SIYOSATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	373
Saitqulov Suxrob Shavkatovich	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARNING KREDIT QOBILIYATINI BAHOLASH UCHUN SKORING MODELIDA SUN'IY INTELEKTNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI.....	380
Komiljon Karimov	
OLIY TA'LIM VA AMALIYOT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI ASOSIDA KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI.....	386
Karimova Xurshida Raximovna	
QO'RIQLASH DEPARTAMENTIDA SOLIQ YUKLAMASINING MOLİYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI VA UNI ICHKI MOLİYAVIY NAZORAT HAMDA AUDIT NUQTAYI NAZARDAN TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	390
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	396
Ли Марина Рудольфовна	
O'ZBEKISTONDA YER RESURLARINING AGRAR IQTISODIYOTGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	402
Xoshimova Sevara Baxromovna	
FARMATSEVTIKA IMPORT KOMPANIYALARIDA REKLAMA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH: "SHINING IMPEX" AJ MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	410
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna, Nurullayev Ilyosbek Xojiabdulla o'g'li	
HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	417
Turayev Baxtiyor Ergashevich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	421
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA DAVLAT SUBSIDİYALARINING MOLIYAVIY NATIJALARGA TA'SIR KANALLARI VA ULARNI HISOBDA AKS ETTIRISH MASALALARI	427
Davronbek Matyakubovich Matkarimov, Qadamov Mirzobek Ulug'bek o'g'li	
O'ZGARUVCHILAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNI REGRESSIYA MODELLARI ORQALI AMALIY TAHLILI	432
Sakiyeva Ozoda Batirovna, Xushvaqtova Dilfuza Ramazon qizi	
INSON KAPITALIGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	437
Zayniddinov Aloviddin Zayniddin o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KRIPTO-AKTIVLAR AYLANMASINI RIVOJLANTIRISH HAMDA BOZOR MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	444
Khakimov Bekzod Ilhomjonovich	
O'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TA'LIMI MUASSASALARINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	453
Atabayeva Yulduz Baxtiyar qizi	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ В УЗБЕКИСТАНЕ	457
Ким Елена Радионовна	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOYİHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI BOSHQARUV SAMARADORLIGI: HOLAT, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	464
Abdurasulova Zarina Sayfiddin qizi	
STRATEGIC MARKETING CAPABILITIES AND ENTERPRISE COMPETITIVENESS IN DIGITAL PLATFORM ECOSYSTEMS: A CONCEPTUAL SMPC MODEL FOR EMERGING MARKETS	471
Bakhtiyor Ruziev Eshmuminovich	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	477
Усманова Зумрад Исламовна	
UGLEROD CHIQINDILARINI KAMAYTIRISHDA YASHIL INVESTITSİYALAR AHAMIYATINING NAZARIY ASOSLARI.....	480
Jumaniyozov Feruzbek Dilshod o'g'li, Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich, Majidov Jamoladdin Komoliddinovich	
MEHMONXONA XO'JALIGI SUBEKTARIDA INSON RESURLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	485
Gulomqodirova Ma'muraxon Saydumarxon qizi	
QISHLOQ MANZILGOHLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI VA NAZARIY JIHATLARI	492
Xusanova Sevara Shavkat qizi	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION-INVESTITSION BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	499
Raxmatillo Mirolimovich Egamov	
MOLIYAVIY HISOBOTNING KOMPILYATSIYASI BO'YICHA TOPSHIRIQLARNI BAJARISH TARTIBI.....	503
A.Z.Avlokulov	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI, TASNIFLASH MEZONLARI VA SHAKLLARI	507
Ibragimov Aziz Turayevich	
IJTIMOY OMILLAR ASOSIDA BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI.....	514
Isroilov Xurshidbek Rustambek o'g'li	
AVTOTRANSPORT XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI KORXONALAR FAOLIYATI HAMDA ULARDA SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	521
Raximov Azamat Hamroqulovich	



KO'P QAVATLI UY-JOY OBYEKTлари LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	525
Xikmatov Xakimxon Xamzaevich, Xalilov Nimatillo, Fattoyev Orzujon Xudoyqul o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	530
Djumaniyazova Shaxnoza G'afurdjanovna	
MINTAQA SHAHARLARIDA SANOAT ISHLAB CHIQRISH DARAJASI TAHLILI.....	535
Ne'matov Ne'matulla Erkinboyevich	
СТРАТЕГИЧЕСКИЙ МАРКЕТИНГ В ЭПОХУ ЦИФРОВИЗАЦИИ: КАК СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ ФОРМИРУЮТ ПОВЕДЕНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ.....	539
Убайдуллоева Сабрина Кодыровна	
NAVOIY VILOYATIDA MEHNAT RESURLARIDAN FOYDALANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI.....	545
O'roqov Mamurali Odil o'g'li	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH VOSITASI SIFATIDA.....	551
Ramazonov Zafar Ulug'bekovich	
O'ZBEKISTON VILOYATLARIDA TURISTIK XIZMATLAR EKSPORTINING BARQAROR DIVERSIFIKATSIYASI: HUDUDIY KONSENTRATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI.....	555
Sayfullayeva Madina Sirojiddinovna	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI KREDITLASH MODELLARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	565
Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich	
JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVINING HARAKATLANTIRUVCHI OMILLARI, BELGILARI VA SHAKLLARI.....	575
Abdullayeva Zulfiya Izzatovna	
DAVLAT MOLIVAVIY BOSHQARUVIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: SUN'IY INTELLEKT VA BLOKCHEYN TEKNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI.....	579
Tilabov Nasrulla Tashmurotovich, Kustanbaeva Jansaya Marat qizi	
JAHON AMALIYOTIDA YASHIL XIZMATLAR KONSEPSIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI, YO'NALISHLARI VA LOKALLASHAYOTGAN INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	584
Y.M. Xalikov	
MILLIY IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT.....	591
Karimova Iroda Abdusattarovna	
MEHMONXONALARDA SUV VA ENERGIYA RESURLARINI BARQAROR BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI.....	598
Abbosova Sabina Hasan qizi	
KORXONALARDA DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARNI OPTIMALLASHTIRISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	604
Mirzayev Ozod Furkatovich	
PAXTA SANOATINI CHUQUR QAYTA ISHLASH ASOSIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH.....	611
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
РАЗВИТИЕ УРБАНИЗАЦИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ.....	615
Салимова Юлдуз Исаковна	
UY-JOY FONDI BOSHQARUVINING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	624
Aminova Naima Umar qizi	
STRATEGIC HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES.....	628
Sultonboyeva Munira Bahodirovna, Sultanova Kamila Muktorali Kizi	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNING AHAMIYATI.....	636
Mullabayev Murod Farxodjonovich	
THE ROLE OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE DIGITAL AGE.....	641
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA BOSHQARUV USULLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	646
Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li	
RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	651
Kosbatirov Anvar Nurgaliyevich	
YASHIL LOYIHALARNI MOLIALASHTIRISHDA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARINING ROLI VA ISTIQBOLLARI	657
Yakubova Samira Sabitdjanovna	
O'ZBEKISTONDA BANK AUDITI VA INVESTITSION FAOLLIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	660
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich, Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi	
CORPORATE GOVERNANCE QUALITY, FOREIGN DIRECT INVESTMENT, AND ECONOMIC GROWTH: A PANEL ECONOMETRIC ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES (2003–2024)	664
Yusufjon Po'latov	
AGRAR MAHSULOTLARNI QAYTA ISHLASH SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	
Sheraliyev Axror Sodiqovich, Ne'matov Javohir Zoxidjon o'g'li	
GANDBOL BILAN SHUG'ULLANUVCHI CHIZIQ O'YINCHISINI O'YIN JARAYONIDAGI TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI MAXSUS MASHQLAR ORQALI OSHIRISH SAMARADORLIGI.....	677
R.O. Obloberdiyeva	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TO'LOV QOBILİYATI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI	683
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILİYATLARINI OSHIRISH MEXANIZMLARI VA UNING NAZARIY JIHLATLARI	689
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich, Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARI.....	694
Kenjayev Toshbolta Aminovich	

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARI



Kenjayev Toshbolta Aminovich,
Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0003-3315-5017

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati hududlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini baholashda $lint = w1Kt + w2Kij + w3Kiq$ integral ko'rsatkichidan foydalanish uslubiyoti ishlab chiqilib, hududlarda qishloq xo'jaligi rivojlanishi samaradorligini baholashning 6 guruhli integral koeffitsientlari shkalasi taklif etilgan, shuningdek, hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish samaradorligi, ijtimoiy samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik, integral koeffitsient.

Annotation: In this article, the method of using the integral indicator $lint = w1Kt + w2Kij + w3Kiq$ in assessing the efficiency of agricultural production in the regions of Surkhondaryo region was developed, a scale of 6-group integral coefficients for evaluating the efficiency of agricultural development in the regions was proposed, and recommendations were also given to increase the efficiency of agricultural production in the regions.

Key words: agriculture, production efficiency, social efficiency, economic efficiency, integral coefficient.

Аннотация: В данной статье разработана методика использования интегрального показателя $lint = w1Kt + w2Kij + w3Kiq$ при оценке эффективности сельскохозяйственного производства в регионах Сурхандарьинской области, предложена шкала 6-групповых интегральных коэффициентов для оценки эффективности развития сельского хозяйства в регионах, а также даны рекомендации по повышению эффективности сельскохозяйственного производства в регионах.

Ключевые слова: сельское хозяйство, эффективность производства, социальная эффективность, экономическая эффективность, интегральный коэффициент.

KIRISH

Jahonda qishloq xo'jaligi barqaror rivojini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanishning maqbul nisbatlarini aniqlash, mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va boshqaruvni tashkil qilishda ekonometrik usullardan foydalangan holda optimal yechimlarga ega bo'lish, qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishning istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish asosida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga doir ilmiy tadqiqot ishlariga alohida ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi farmonlarida Yangi O'zbekistonni barpo etishda qishloq xo'jaligiga boshqaruvning zamonaviy usullari, mahsulot ishlab chiqarish bosqichlariga yangi texnologiyalarni joriy qilgan holda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq aholisining turmush farovonligi masalalariga alohida e'tibor berilgan [6; 7].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligi har bir mamlakatning asosiy tayanch tarmog'i hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi barcha mamlakatlarda ham aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab, birlamchi ehtiyojlarini qondiradi. Shu sababli tarmoqni rivojlantirish borasida dunyo miqyosida ko'pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirishning matematik-statistik modellashtirish uslubiyoti, agrar sohaning iqtisodiy tahlili va ekonometrik modellashtirish hamda optimallashtirish masalalari xorijiy olimlardan M. Treysi, S. Sanches, R. M. Salou, E. Krae, G. B. Kleyner, S. A. Smolyak, N. Yu. Vaynshteyn, E. Xedi, D. Dillon, T. Littl va boshqalarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan.

Ekonometrik olim Guan Zhengfeining fikriga ko'ra, "qishloq xo'jaligi iqtisodiy tarmoq va, albatta, uning rivoji ekonometrik modellashtirish bilan chambarchas bog'liqdir" [1].

MDHga a'zo mamlakatlar olimlaridan Kravchenko R. G., Kashtayeva S. V., Tsvil M. M., Shumilina V. E., Sinelnikov V. M., Korsun N. F., Markov A. S., Podashevskaya E. I., Ereshko F. I., Medennikov V. I., Kulba V. V., Nosonov A. M., Ivanova I. A., Savkin V. I., Nam M. A., Baydakov A. A., Muratova L. G., Salnikov S. G., Gorbachev M. I., V. S. Vajenina, N. F. Korsun, Ye. A. Paxomova, D. A. Pisareva asarlarida qishloq xo'jaligida iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirish, ekonometrik tahlil va modellashtirish, iqtisodiy tavakkalchiliklarni prognozlash kabi masalalar hamda ularning yechimi yoritib berilgan.

S. V. Kashtayeva "iqtisodiy-matematik usullar va modellarni qo'llash rejalashtirishning sifatini sezilarli darajada oshirish hamda ishlab chiqarishda qo'shimcha resurslarni jalb etmasdan qo'shimcha samaradorlikka erishish imkonini beradi", deb ta'kidlab o'tgan [2].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan S. S. G'ulamov, T. Sh. Shodiyev, Yo. A. Abdullayev, N. M. Mahmudov, B. B. Berkinov, B. A. Begalov, T. D. Doschanov, B. R. Ro'zmetov, O. Q. Xatamov, I. S. Abdullayev, U. Nigmatjanov, H. S. Muxitdinov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ekonometrik modellashtirish, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish va iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish, mavsumiy tebranishlarni prognozlash, xo'jaliklar rivojlanish tendensiyasi va istiqbollarni ekonometrik bashoratlashning nazariy-uslubiy hamda ilmiy-amaliy muammolari tadqiq etilgan.

Iqtisodchi olim O. A. Saydaxmedovning qayd etishiga ko'ra, "ishlab chiqarish muhitida boshqarish faoliyatining asosiy maqsadi — bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yuqori foyda olishdir" [3].

Ammo yuqoridagi tadqiqotlarda hududda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini zamonaviy ekonometrik modellar yordamida prognoz qilish yetarli darajada o'rganilmagan. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda hududda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi istiqbolini prognozlash masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish bo'yicha ko'plab davlat dasturlari qabul qilinmoqda. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2023-yilda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"da qishloq xo'jaligida Turkiya va Ispaniya davlatlarining qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha amaliy tajribasidan kelib chiqqan holda hosilni sug'urtalashni joriy etish, tashabbuskorlarga qiymati 2,6 mlrd so'mlik 11 mingta qishloq xo'jaligi texnikalarini bank krediti va lizing asosida yetkazib berish choralari ko'rish; aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini ishlab chiqish, boshqoli don hosildorligini o'rtacha 68 sentnerga yetkazish, yuqori avlodli urug'lik kartoshka yetishtirishni yo'lga qo'yish; qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish maqsadida "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilish, oziq-ovqat tarmog'ida qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish uchun import o'rnini bosuvchi 25 turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish choralari ko'rish, hududlarda 10 ta agrologistika markazlari va 41 ta sovitkichli sig'implarni tashkil etish; soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish maqsadida mahsulot yetishtiruvchi tadbirkorlik subyektlariga hududlarning tuproq-iqlim sharoiti, suv bilan ta'minlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish bo'yicha tavsiya berish, ichki va tashqi bozorlardagi joriy hamda prognoz narxlari to'g'risida xabardor qilish tizimini yo'lga qo'yish mexanizmini ishlab chiqish; hududlardagi dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari o'simliklarni himoya qilish sohasida "Karantin xizmati — dehqonga ko'makchi" tizimini joriy etish; agrar va oziq-ovqat sohasini rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida 1 mlrd dollardan ortiq mablag'larni yo'naltirish; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash maqsadida yerlarning sho'rlanish darajasini pasaytirish tadbirlarini amalga oshirish, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda suvni tejaydigan innovatsion sug'orish texnologiyalari joriy



etiladigan ekin maydonlarini kengaytirish orqali 7 mlrd kub metr suvni iqtisod qilish; tarmoqni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish maqsadida agrar va oziq-ovqat sohalarini subsidiyalash to'g'risidagi nizomni qabul qilish; qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish maqsadida Qishloq xo'jaligi fundamental tadqiqotlar markazini tashkil qilish yuzasidan xorijiy hamkorlar bilan kelishuvlarga erishish; qishloq hududlarini rivojlantirib borib, Respublika hududlarida agroturizmni rivojlantirish maqsadida 8 ta agroturizm obyekti ishga tushirish; tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish maqsadida "Raqqamli qishloq xo'jaligi" yagona integratsion platformasini yaratish, suv resurslaridan foydalanishni raqqamlashtirish, "Agroplatforma" axborot tizimini joriy etish, Qishloq xo'jaligi vazirligining geoaxborot tizimidan foydalanishni kengaytirish vazifalari belgilab berilgan [4]. Bu chora-tadbirlarni amalga oshirishda hududlar barcha tarmoqlari rivojlanishini, mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi darajalarini aniqlash va samaradorlik ko'rsatkichlari nisbatan past bo'lgan hududlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Shu bois, tadqiqotda taklif etilgan uslubiyat bo'yicha Surxondaryo viloyati paxta, bug'doy, meva-sabzavotchilik, chorvachilik tarmoqlari rivojlanishi va tarmoqlarda ishlab chiqarish, resurslardan foydalanish, moliyaviy va kapital samaradorliklarini hududlar bo'yicha baholash amalga oshirildi. Birinchi bosqichda taklif etilayotgan ko'rsatkichlar tizimi orqali mintaq hududlari paxtachilik, g'allachilik, meva-sabzavotchilik, chorvachilik tarmoqlarida texnologik samaradorligi ko'rsatkichlari me'yorlashtirilgan qiymatlari hisoblanib, ularning umumiy o'rtacha qiymatlari aniqlandi.

TEXNOLOGIK SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

Surxondaryo viloyati tumanlarida paxta hosildorligi, bug'doy hosildorligi, kartoshka hosildorligi, sabzavotlar hosildorligi, meva va rezavorlar hosildorligi, poliz mahsulotlari hosildorligi, uzum hosildorligi ko'rsatkichlari qiymatlari aniqlandi (1-ilova).

$$X' = \frac{X - X_{\min}}{X_{\max} - X_{\min}} \quad (1)$$

(1) formula asosida ko'rsatkich qiymatlari me'yorlashtirilib jamlandi [5].

Bunda: mintaq hududlarida hisoblangan har bir ko'rsatkich qiymatlari bo'yicha eng yuqori qiymatni qayd etgan tuman etalon sifatida olinadi va unga 1 qiymat qabul qiladi, eng kichik qiymat qayd etgan tuman 0 qiymat qabul qiladi. O'sish sur'ati ko'rsatkichlarini hisoblashda shu usuldan foydalanildi va hisoblangan ko'rsatkich qiymatlari me'yorlashtirildi.

1-jadval
Me'yorlashtirilgan samaradorlik koeffitsiyenti shkalasi

№	Tavsifiy daraja	Chegaraviy koeffitsiyent
1	Etalon	1
2	Juda yuqori	$0,8 \leq K < 1$
3	Yuqori	$0,6 \leq K < 0,8$
4	O'rtacha	$0,4 \leq K < 0,6$
5	Past	$0,2 \leq K < 0,4$
6	Juda past	$0 \leq K < 0,2$

1-jadvalda keltirilgan samaradorlik koeffitsiyenti qiymatlar shkalasiga muvofiq guruhlariga ajratildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Quyidagi formula asosida texnologik samaradorligi ko'rsatkichlari me'yorlashtirilgan qiymatlari jamlandi va ko'rsatkichlar soniga bo'lindi:

$$K_t = \frac{H_{pxt} + H_{bgld} + H_{krt} + H_{sbz} + H_{plz} + H_{mev} + H_{uzm}}{7} \quad (2)$$




Ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlar o'rtachasiga etibor qaratilsa quyidagi holatni ko'rishimiz mumkin (1- rasm).



1-rasm. Surxondaryo viloyati tumanlari bo'yicha 2010-2024 yillar qishloq xo'jalik mahsulotlari me'yorlashtirilgan hosildorliklari o'rtachasi

Ikkinchi bosqichda mintqa hududlarida 2010-2024 yillarda yetishtirilgan bug'doy, kartoshka, sabzavot, meva va rezavorlar, poliz va uzum mahsulotlari, go'sht, sut, tuxum mahsulotlari hajmi aholi jon boshiga miqdori (**Ijtimoiy samaradorlik**) ko'rsatkichlari qiymatlari aniqlanib, (1) formula asosida tegishli ilovalardagi ko'rsatkich qiymatlari me'yorlashtirildi, o'rtacha qiymatlari umumlashtirilib tumanlar kesimida tahlil qilindi.




2-rasm. Hududlar bo'yicha 2010-2024 yillar ba'zi qishloq xo'jalik mahsulotlari me'yorlashtirilgan aholi jon boshiga miqdori o'rtachasi.

Quyidagi (3) formula asosida ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlari me'yorlashtirilgan qiymatlari jamlandi va ko'rsatkichlar soniga bo'lindi:

$$K_{ij} = \frac{A_{bg'd} + A_{krt} + A_{sbz} + A_{plz} + A_{mev} + A_{uzm} + A_{gsht} + A_{sut} + A_{txm}}{9} \quad (3)$$

Yuqoridagi diagrammada ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlari o'rtachasiga etibor qaratilsa ushbu holatni ko'rishimiz mumkin (2- rasm).

Uchinchi bosqichda tumanlar kesimida 2016-2024 yillarga tegishli qishloq xo'jaligida yer unumdorligi, asosiy kapitalda o'zlashtirilgan investitsiyalar, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish fondlarining qaytaruvchanligi, foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda, foyda rentabelligi kabi **iqtisodiy samaradorlik** ko'rsatkichlari bo'yicha Milliy statistika qo'mitasidan olingan ma'lumotlar (1) formula asosida ko'rsatkich qiymatlari me'yorlashtirildi, o'rtacha qiymatlari umumlashtirilib hududlar kesimida tahlil qilindi.



3-rasm. Hududlar kesimida 2016-2024 yillar qishloq xo'jaligi ba'zi iqtisodiy ko'rsatkichlari me'yorlashtirilgan qiymatlari o'rtachasi.

Quyidagi formula asosida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari me'yorlashtirilgan qiymatlari jamlandi va ko'rsatkichlar soniga bo'lindi:

$$K_{ij} = \frac{Y_{unm} + K_{inv} + X_{qyt} + F_{slq} + R_{drj}}{5} \quad (4)$$

Iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlar o'rtachasiga etibor qaratilsa quyidagi holatni ko'rishimiz mumkin (3-rasm).

Hududlarning umumiy integral koeffitsiyenti har bir samaradorlik koeffitsiyenti me'yorlashtirilgan qiymatlari yig'indisidan tashkil topadi. Bunda (5) formula asosida integral koeffitsiyenti qiymatlar shkalasi ishlab chiqildi (4-jadval):

$$I_{int} = w_1 K_1 + w_2 K_2 + w_3 K_3 \quad (5)$$

Bu yerda: I_{int} -ishlab chiqarish samaradorligi integral koeffitsiyenti;


w_i - i -guruh vazni ($w_1 + w_2 + w_3 = 1$).



4-jadval

Umumiy integral koeffitsiyenti qiymatlar shkalasi

Tavsifiy daraja	Chegaraviy koeffitsiyent
Etalon	$0,5 \leq I_{int} \leq 0,6$
Juda yuqori	$0,45 \leq I_{int} < 0,5$
Yuqori	$0,4 \leq I_{int} < 0,45$
O'rtacha	$0,35 \leq I_{int} < 0,4$
Past	$0,25 \leq I_{int} < 0,35$
Juda past	$0 \leq I_{int} < 0,25$



4-rasm. Surxondaryo viloyati tumanlari bo'yicha integral ko'rsatkich koeffitsiyentlari

Hududlar bo'yicha integral ko'rsatkich koeffitsiyentlari aniqlandi (13-rasm). Bu koeffitsiyentlarni 4-jadval bo'yicha guruhlariga ajratsak quyidagi holatni ko'rishimiz mumkin (5-jadval):

5-jadval

Hududlar kesimida integral koeffitsiyenti qiymatlarini aniqlash natijalari

Guruhlar		Tumanlar		
Tartib raqami	Tavsifi	Nomlanishi	Koeffitsiyenti	Reyting o'rni
1	Etalon	Denov	0,524	1
2	Juda yuqori	Termiz	0,484	2
		Qumqo'rg'on	0,481	3
		Sherobod	0,473	4
		Uzun	0,472	5
		Muzrabot	0,427	6
3	Yuqori	Angor	0,426	7
		Oltinsoy	0,408	8



4	O'rtacha	Boysun	0,396	9
		Jarqo'rg'on	0,389	10
		Sariosiyo	0,381	11
		Qiziriq	0,371	12
5	Past	Bandixon	0,337	13
		Sho'rchi	0,314	14

Bu koeffitsiyentlarni 5-jadval bo'yicha guruhlariga ajratsak quyidagi holatni ko'rishimiz mumkin. Denov (0,524) tumani etalon, Termiz (0,484), Qumqo'rg'on (0,481), Sherobod (0,473) tumanlari juda yuqori integral koeffitsiyentli guruhga, Uzun (0,472), Muzrabot (0,427), Angor (0,426), Oltinsoy (0,408) tumanlari yuqori integral koeffitsiyentli guruhga, Boysun (0,396), Jarqo'rg'on (0,389), Sariosiyo (0,381) Qiziriq (0,371) tumanlari o'rtacha integral koeffitsiyentli guruhga, Bandixon (0,337) va Sho'rchi (0,314) tumanlari past integral koeffitsiyentli guruhga tegishliligi aniqlandi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, integral koeffitsiyenti qiymatlari ko'rsatkichlari Boysun, Sariosiyo, Qiziriq tumanlari "o'rtacha", Bandixon va Sho'rchi tumanlari "past" guruhlariga mansubligi aniqlanib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda samaradorlikni oshirish zarurati mavjudligini ko'rsatadi.

Ushbu hududlarda texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyentlarini ko'tarish, ya'ni qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish uchun quyidagi amaliy tadbirlarni bajarish tavsiya qilinadi:

- ertaki ekinlar va bug'doydan bo'shagan yer maydonlariga imkoniyat darajasida ko'proq kartoshka, sabzavotlar, poliz mahsulotlari, dukkakli don mahsulotlari, ozuqabop ekinlarni ekishni tashkil etish;
- dala chetlari, kanallar, sug'orish, kollektor-drenaj atrofidagi maydonlarga mevali daraxtlar va uzum ekishni tashkil qilish;
- eksportbop qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishni ko'paytirish;
- ertaki ekinlar va g'alladan bo'shagan yer maydonlariga takroriy ekinlar ekish ishlariga fermer xo'jaliklarining mavsumiy ishchilari, ijtimoiy daftarlarda ro'yxatda turgan va xorijdan qaytgan ishsiz fuqarolarni jalb qilish;
- takroriy yerlarda yetishtiriladigan mahsulotlarni tizimli xarid qilib olish maqsadida qayta ishlash, tayyorlov korxonalari va mahalliy tadbirkorlarni birlashtirgan holda, mahsulot yetishtiruvchilar bilan shartnomalar tuzilishini tashkil etish;
- takroriy ekinlar ekilgan maydonlarning o'z vaqtida sug'orilishiga ko'maklashish;
- yetishtirilgan hosilni o'z vaqtida yig'ib olish, belgilangan yo'nalishlar bo'yicha ichki bozorga sotish, eksport qilish, zaxiraga olish va saqlash ishlariga ko'maklashish;
- mahsulot yetishtiruvchilarga qayta ishlash, tayyorlov korxonalari va eksportyorlar bilan tuzilgan shartnomalar qiymatining 40 foizi miqdorida avans mablag'larining to'lab berilishini, shuningdek, takroriy ekin uchun zarur bo'lgan urug'liklar, kimyoviy vositalar sotib olish uchun banklar tomonidan kreditlar berilishini yo'lga qo'yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Guan Zhengfei. Econometric analysis of agricultural production: new primal perspectives: PhD thesis. – Wageningen: Wageningen University, 2005.
2. Каштаева С. В. Моделирование экономических процессов в АПК: учебно-методическое пособие. – Пермь: Пермская государственная сельскохозяйственная академия им. Д. Н. Прянишникова, 2009. – 94 с.
3. Saydaxmedov O. A. Agrar sohani boshqarishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2012. – 12-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi "2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-113-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6424449>



5. Старовойтов В. В., Голуб Ю. И. Нормализация данных в машинном обучении // Информатика. – 2021. – Т. 18, № 3. – С. 83–96. DOI: 10.37661/1816-0301-2021-18-3-83-96.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957>

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PF-6159-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5262596>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
